

**MAMLAKAT VA FRONT EHTIYOJLARIGA QARATILGAN QISHLOQ  
XO‘JALIGI SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING FRONTORTI  
JASORATLARI**

**Muyassar Rashidovna HAKIMOVA**

O‘qituvchi

Termiz davlat pedagogika inistituti

Termiz, O‘zbekiston

[muyassarhakimova21@gmail.com](mailto:muyassarhakimova21@gmail.com)

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Ikkinci jahon urushi yillarida Surxon vohasi xotin-qizlarining front orti qishloq xo‘jaligidagi sharaflı faoliyati, ularning fidokorona mehnati haqida so‘z boradi. Erkaklarnikidan kam bo‘lmagan matonat va iroda sohibi o‘laroq Ikkinci jahon urushida qozonilgan g‘alabaga qo‘shtan haqli hissalari tarannum etiladi.

**Tayanch so‘zlar:** Ikkinci Jahon urushi, front, xotin-qizlar mehnati, majburiy minimum, qishloq xo‘jaligi, jasorat, kolxoz.

**ПОДВИГИ ЖЕНЩИН ЗА ЛИНИЕЙ ФРОНТА В СФЕРЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА, НАПРАВЛЕННЫЕ НА НУЖДЫ СТРАНЫ И ФРОНТА**

**Муяссар Рашидовна ХАКИМОВА**

преподаватель

Термезский государственный педагогический институт

Термез, Узбекистан

[shaxboz.shohbaxt@gmail.com](mailto:shaxboz.shohbaxt@gmail.com)

**Аннотация**

В данной статье рассказывается о самоотверженной деятельности женщин Сурханского оазиса в годы Второй мировой войны в области сельского хозяйства за линией фронта, их тяжелом труде. Прославляется их достойный вклад в победу во Второй мировой войне, как обладателей не меньшей мужественности и силы воли, чем мужчины.

**Ключевые слова:** Вторая мировая война, фронт, женский труд, обязательный минимум, сельское хозяйство, мужество, колхоз.

Dunyo tarixida o‘chmas iz qoldirgan ikkinchi jahon urushi, yurtimizni ham chetlab o‘tmadi. Bugungi demokratik fuqarolik jamiyati qaror topgan bir davrda, urush deyilganda albatta qo‘liga qurol ushlagan mard va jasur erkaklar ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Ammo yurt boshiga qayg‘uli musibat va bosqinlar keladigan bo‘lsa erkaklar bilan bir qatorda ayollarimiz ham Vatan himoyasida elkama-yelka kurashganlarini tarix unutgani yo‘q. Yurtimiz tarixiga nazar tashlasak, Sharq ayollari davlat idoralarini boshqarishda, fan, madaniyat, san’at, ma’naviyatni yuksaltirishda salmoqli hissa qo‘shtanliklarini, ularning dono va

zukkoligi, ayollik iffati va salohiyati, mard va jasurligi to‘g‘risida ko‘plab tarixiy ma’lumotlar etib kelgan. Nafaqat Sharq, balki bizga tanish bo‘lgan barcha mamlakatlarda ayollar orasidan shavkatli hukmdorlar, oqila maslahatgo‘ylar, etuk donishmandlar, zabardast olimalar, suxandonlar, shoiralar va zukko san’atshunoslar yetishib chiqqan. Chunonchi, massagetlar hukmdori To‘maris, qadimiy Palmiraning hukmdori Zinoviya, ispan qirolichasi Izabella, arman malikasi Tamaralar o‘z davrining yetuk siyosatdon hukmdorlari bo‘lganlar [9; 90–92]. O‘zbekiston farzandlari Ikkinci jahon urishi yillarida frontda ham, front ortida ham mag‘rur turib Vatan himoyasida bo‘lishdi. Frontda Vatan uchun jon fido qilishgan bo‘lsa, front ortida jon fido qilayotganlarga jon berishganligini o‘zi katta jasorat hisoblanadi. Ikkinci jahon urushida nafaqat erkaklar balki ayollarning ham g‘alabada ulkan jasoratlari bor.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, Nikolay Rerixning 1945-yil may–iyunda yozilgan va Markaziy davlat arxivining fashistlarga qarshi Slavyan qo‘mitasida saqlanayotgan xatlaridan birida shunday jumlalar bor: “Oksford lug‘ati ayrim rus so‘zlariga qonuniy tus berdi, endilikda ular dunyo miqyosida e’tirof etiladi; jumladan, lug‘atga tarjima qilib bo‘lmaydigan, ko‘p ma’noli “podvig”, ya’ni “jasorat” so‘zi qo‘shildi. Har qancha ajablanarli bo‘lmasin, Yevropadagi birorta xalqning tilida mazmunan unga yaqin bironta ham so‘z yo‘q” [3].

Agar qachonlardir jahon xalqlari tilida ruscha “podvig” so‘zi ham ommalashsa, bunda ayollarimizning urush yillarida ko‘rsatgan jasorat ham alohida o‘rin tutadi; zotan, ayni ayollar urush ortida mardonavor mehnat qildilar, bolalarni saqlab qoldilar va erkaklar bilan birga Vatanni himoya qildilar.

Maqolada umumiyl qabul qilingan metodlar – xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Ikkinci jahon urushi yillarida Surxon vohasi xotin-qizlarining front orti qishloq xo‘jaligidagi sharafli faoliyati ilmiy manbalar asosida yoritib berishdan iborat.

Urush boshlanganligi to‘g‘risidagi xabar yetib kelishi bilanoq, garchi janggohlar suronli kechayotgan hududlar yurtimizdan minglab kilometr uzoqda bo‘lsa-da, butun vohani qamrab oldi. Surxon vohasining barcha shahar va

qishloqlarida ishchi-xizmatchilar, yoshlari, ayollar, qo‘yingki, qo‘liga quroq tutishga imkonini bor barcha xalq fashist bosqinchilariga qarshi kurashishga hozir-unozir ekanliklarini bildirdilar [10; 39].

Vaholanki, Surxondaryo viloyati 1941-yil 6-martda, ya’ni urush boshlanishidan roppa-rosa 107 kun oldin tashkil etilgandi. Hukumat tomonidan qabul qilingan chaqiriqlarda qishloq xo‘jaligi mehnatkashlari zimmasiga ulkan vazifalar qo‘yildi. Chunki urush mamlakat qishloq xo‘jaligi oldida turgan vazifalarning bajarilishini ham qiyinlashtirib yubordi. Qishloq xo‘jaligi sanoatni xomashyo bilan ta’minalashdan tashqari, frontni ham, Qizil armiyani ham to‘la ta’min etishi lozim edi. Buning ustiga qishloq xo‘jaligidan eng sara ishchi kuchlarini frontga safarbar qilishni talab qildi. Natijada qishloq xo‘jaligida ishchi kuchi sezilarli darajada kamaydi. Hukumat qaroriga asosan 12 yoshdan boshlab yosh bolalar qishloq xo‘jaligi ishlariga majburan jalb etildi. Kolxozlarda mehnat kuni majburiy minimumi urushdan avvalgiga nisbatan 1,5 baravar qilib belgilandi.

Barcha qishloq xo‘jaligii mahsulotlari yuz foiz frontga jo‘natilgan. Arxiv ma’lumotlariga qaraganda urush davrida Boysun tumanida faoliyat ko‘rsatgan 52 ta kolxoza qariyib 8 ming odam ter to‘kib ishlagan va g‘alaba uchun mehnat frontida o‘z hissasini qo‘shgan.

Urush sharoitida qishloq xo‘jalik mehnatkashlariga mehnat kunlari joriy etildi.

Jumladan, erkaklarga yillik 100, ayollarga yillik 80 mehnat kuni belgilab berildi. Bunda qishloq xo‘jalik mavsumi asosan yoz va kuzda bo‘lishi hisobga olindi. Yosh bolasi bo‘lgan, yoki emizikli ayollarga yarim mehnat kuni belgilandi. Mehnat kunini bajarish barcha uchun majburiy edi.

Sherobod rayonining Andreev nomli kolxozidan Chehragul Jo‘rayeva, Bahoroy Safarova, O‘g‘iloy Normurodova, O‘g‘ilnoz Normurodova, Tangidevondagi Stalin nomli kolxoz a’zosi Aram Xayirova kunlik normani ortig‘i bilan bajarishar va butun viloyat ahliga namuna bo‘lishgan edi [6; 34].

Boysun rayoninining “Agronom” kolxozilik Xolbibi Qosimova, Obod Suvanova, Mastura Hamroyeva, Hamro Imomova, Jang‘il Turdiqulova, Zaynab

Mamadiyeva, Oltin Bozorova, Oynabod Qurbonova, To‘ti Nurova, Anor G‘afforova kabi xotin-qizlar frontga ketgan otalari, aka-ykalari, erlari o‘rnini bildirmadilar.

Urush davrida “Agronom” kolxozi a’zolari tomonidan davlatga go‘sht, sariyog‘, jun-qil, tuxum, brinza (qopir, sho‘rtang pishloq), pilla, qoramol va chorva mol terilari topshirish rejalar ortig‘i bilan bajarildi.

Urush davrida texnika yo‘qligidan boshoqli don va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ekish asosan ho‘kiz bilan yer haydalib, ketmon va bel yordamida qo‘l kuchidan foydalanilardi. Boshoqli don ekinlari asosan, Boysunning Quralay, Chorchalak, Oqjar, Mirqorako‘z, Qizil dashtlariga, Tangimushdag‘i Otqamar hududlarida ekilib, 100 foiz qo‘l kuchi bilan o‘rib yanchib olinardi. Xotin-qizlardan Hamro Sattorova, Mayram Sattorova, Bayna Hamroyeva, Jang‘il Majidova, Muazzam Odilova, Bahor Chorshanbiyeva, Ulug‘ Sherqulova, Bo‘ri Sherqulova, o‘spirinlardan Zinat A’zamova, Qudrat Qodirova kabilar kunlik o‘rash normalarini oshig‘i bilan bajarardilar.

Boysundagi 52 ta kolxozdan 44 tasi, 262 ta brigadadan 219 tasi, 617 ta zvenodan 498 tasi g‘alla tayyorlash rejasini bajardilar [4].

Dalalarda keksalar, ayollar va yoshlar issiq-sovuqni nazar-pisand qilmay ishni davom ettirdilar. Ekin maydonlari qisqarmadi, balki avvalgi darajasida qoldi. Ayrim xo‘jaliklarda esa ancha kengaygan. 1942-yilda faqat Boysun rayonining 33080 hektar maydoniga, 1943–1944-yillarda 35800 hektar maydonga don ekinlari ekildi. G‘alla tayyorlash davlat rejasi muddatidan oldin bajarildi [8; 25].

Urush yillarining mashaqqatlariga qaramay, ilg‘or paxtakorlar mavjud qiyinchiliklarni o‘zlarining jasoratlari mehnatlari bilan yengib, paxta hosilini yildan-yilga ko‘paytirib bordilar. Denov qishloq kengashiga qarashli Y.Oxunboboyev nomidagi jamoa xo‘jaligi zveno boshlig‘i Anorbibi Shukurova zvenosida yetishtirilgan hosilning har bir hektar yeridan 80 sentnerdan paxta olindi [7; 134].

Har qancha qiyinchiliklarga qaramay, qishloq xo‘jaligi mehnatkashlari o‘z zimmasiga olgan vazifani mas’uliyat bilan bajardilar. Kunlik normani bajarish odatiy holga aylandi. Xususan, Sherobod rayoni Stalin kolxozi ishchilari Aminova

Qizlaroy har yili 200–250 mehnat kuni, Safarova Bahoroy yillik 310–350 mehnat kuni, Y.Oxunboboyev nomli kolxoz ishchisi Egamberdiyeva Obodoy staxanovchi sifatida 1944-yilda 411 mehnat kuni, Sariosiyo tumanidagi G‘alaba kolxozi a’zosi M.Qurbanova 1942-yilda 400 mehnat kuni ishslashga erishgan [6; 35].

Boysun kolxozlarining mehnatkashlari urush yillarida xo‘jalikning muhim tarmog‘i bo‘lgan pillachilik sohasida ham ulkan ishlarni amalga oshirdilar. Rayondagi 52 ta kolxozdan 36 tasi pilla yetishtirish bilan shug‘ullangan. Kolxozchi ayollar kunduzi dalada ishlasalar, kechasi bilan , qurtga barg kesib, pilla hosilini yetkazib berdilar. Ilg‘or pillaboqarlardan A’zamova Zinnat o‘roq o‘rishga borgunicha, har yili 2 qiti ipak qurti boqib, 110–115 kg dan pilla etishtirib, rekord qo‘ygan. Front orti jonkuyar ayollaridan Bayna Sattorova (Qizil karvon kolxozidan) 5 korobka pilladan 380 kg, Anbar Mirzayeva (Karl Marks kolxozi, Darband) 3 korobka pilladan 180 kg pilla topshirib peshqadam bo‘ldilar.

Boysunliklar pilla tayyorlash planini 1941-yil 109.1 foizga bajardi, 1942-yilda 112 foizga yoki 1940-yilga nisbatan 21.8 foizga oshirib bajardilar [5; 16–35]. O‘sha davrda kolxoz pillachilari ham pilla tayyorlash rejasini sharaf bilan bajardilar. Pillachilardan Noroy Jo‘rayeva, Ziyoda Qodirova, Hamro Imomova, Xolbibi Qosimova, Norxol Sultonova, Xosiyat Ochildiyeva, To‘ti Nurova, Oyimxol Turdiqulova, To‘fa Saidova, Maysar Raxmonova, Maysar Mirzaqulova va boshqa o‘nlab pilla zvenolari Vatan g‘alabasi uchun kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay el-yurtga xizmat qildilar.

Boysun tumani 2-umumiyl o‘rta ta’lim maktabining kutubxonachisi Yulduz Tog‘ayeva mehnat frontida onasining urush yillaridagi xotiralarini shunday so‘zlab beradi:

Momom Zubayda kampirning 16 nafar farzandi bo‘lgan ekan. Ularning 8 nafari gul (qizamiq)dan vafot etgan. Chunki o‘sha yillari hali meditsina rivojlanmagan, odamlarning tibbiy bilimi past bo‘lgan, tibbiyat mutaxassislari yetishmagan. Onam Hamroqulova Momanoy eng katta farzand bo‘lib, 1930-yil 20-yanvarda tavallud topgan. Urush boshlangandan keyin 12 yoshni qarshi olgan Momanoy onasining o‘rniga kolxozga bug‘doy o‘rimiga chiqqan. Shu darajada

shiddat va matonat bilan o‘roq o‘rganki, hatto boshqa kolxozchilar dam ol, hammadan ko‘p o‘rayapsan. O‘rningga onang dalaga chiqsin, uyda o‘tirmay deb, Momanoyni shahtidan qaytarmoqchi bo‘lishadi. O‘riq o‘rib Qizilni dalalariga borishganligini ko‘p gapirardi. Qahatchilik yillari, oziq-ovqat tanqis. Hattoki ertalab o‘rishga ketguncha kunjara eb shishgan odamlar yo‘lni yo‘qasida yiqilib o‘lib qolganlarini necha martalab guvohi bo‘lishgan. Yosh Momanoy judayam kambagallikda qiynalib kun kechirayotgan dugonalari uchun otasining bug‘doy o‘rasidan yashirinchha o‘zi tikkan xaltachasiga bir kosa bug‘doyni solib dugonalariga bergen. Dugonalar uni o‘g‘ircha (hovoncha)da tuyib, bir hovuchdan solib atala qilib ichishgan.

O‘sha yerda non pishirtirib kolxozchilarga tarqatilar edi. Kunlik normani ortig‘i bilan bajargani uchun Momanoy har kuni 5-6 tagacha non olish bilan rag‘batlantirgan. Birinchi marta Boysunga qadoqlangan choy keladi va Momanoya mehnatda ko‘rsatgan jonbozligi uchun choyni sovg‘a sifatida berishadi. Shunda butun o‘rimga chiqqan o‘roqchilar choyni bir-bir qo‘llariga olib, Xitoydan keltirilgan ekan, qanaqa narsa bo‘saki deb qiziqib ko‘rishadi. Momanoy 15 yoshigacha o‘rimchilik qiladi. Bir marta mukofotga gulli chit oladi. O‘sha paytda bo‘zni bo‘yab, undan kiyim kiygan aholi uchun bu ham nihoyatda hayratlanarli edi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Ikkinchi jahon urushi yillari barcha xalqlar vakillari qatori, o‘zbek xalqining matonati sinovi bo‘ldi. Bu sinovdan o‘zbekistonlik xotin-qizlar ham sharaf bilan o‘tdilar va tarixning barcha davrlarida bo‘lgani kabi, dard-u kulfatlarning balogardon sifatida o‘zlarini namoyon etdilar. Ularning vatan uchun qilgan xizmatlari yoshlarga hamisha, yana uzoq asrlar davomida o‘rnak va namuna bo‘lishiga shubha qilmaymiz. Mustaqillikning sharofati bilan, bugungi kunda, tarixni haqqoniy yoritish va undan saboq chiqarish muhim sanaladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, inson, millat va xalq tarixiy xotira tuyg‘usi bilan barhayotdir. Xotira – kechagi o‘tmishni, ajdodlar o‘gitini, milliy merosimizni anglatib turuvchi – muqaddas kitob zarvaraqlaridek

hayotimizni yoritib turadi. Qadr insonni yuksaklikka ko‘taradi, uning faoliyatiga, orzu-intilishlariga, maqsad-maslaklariga olijanoblik bag‘ishlaydi. Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi, tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e'zozlash – odamiylikning eng oliv mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak deb yashaydigan bag‘rikeng va olijanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir [2].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son Farmoni //SQ-129-IV-son <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-aprel qarori. <http://www.uza>.
3. Aleksiyevich S. Urush ayollar ishi emas //Jahon adabiyoti, 2016. – № 1-2.
4. Boysun tuman davlat arxivi. 19-fond. 32-varaq. Raystat.
5. Rashidov Q. “Agronom” kolxozi tarixi. – Тошкент, 2015.
6. Soatov O., Tursunov S., Umarov I., Toshev K. Frontdan kelgan xatlar. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
7. Tursunov S., Turdiyev T. Denov. – Toshkent: Fan, 2009. – 193 b.
8. Usmon, Tohir. Suronli yillar qissasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
9. Hakimova M. Surxon vohasi ayollarining front ortida ko‘rsatgan jasoratlari. //Tamaddun nuri, 2023. – №11 (50). – B. 90-92.
10. Hakimova M. Ikkinci jahon urushi yillarida surxon vohasi xotin-qizlarining front hamda front orti jasorati /Globalashuv sharoitida innovatsion texnologiyalar va oliv ta’limning dolzarb muammolari: xalqaro ilmiy-amaliy konf. materiallari. – Termiz, 2023. – B.39.